QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA INNOVATSION VA TEXNOLOGIK YANGILANISH JARAYONLARI TAHLILI



Tursunqulov Inom Abduxalilovich
Sambhram universiteti "Biznes boshqaruvi" kafedrasi mudiri, i.f.f.d. PhD, v.b. dots.

Annotatsiya

Mamlakatimiz hududlarida ishlab chiqarish korxonalarda asosiy fondlarning 30 foizi ham jismoniy ham ma'naviy eskirgan. Bu esa korxonalarning deyarli barcha texnologik va iqtisodiy ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Eng asosiy ko'rsatkich bo'lgan mehnat unumdorligi past darajada qolmoqda. Shu munosabat bilan har bir korxonada o'ziga xos texnologik yangilanish bo'yicha maqsadli dasturlarni tuzish bu borada yaxshi natija beradi. Texnologik yangilanishning boshqaruv mexanizmini takomillashtirish kerak. Chunki korxonalarda innovatsion rivojlanish va texnologik yangilanish funksiyalarga maxsus bo'limlar amalga oshiradi.

Kalit so'zlar: Innovatsiyalar, boshqaruv mexanizmi, texnologik yangilanish, innovatsion rivojlanish, texnologik yangilanish va hakozo.

Аннотация

В регионах нашей страны 30% основных фондов производственных предприятий устарели как физически, так и морально. Это может оказать негативное влияние практически на все технологические и экономические показатели предприятий. Производительность труда, являющаяся важнейшим показателем, остается на низком уровне. В связи с этим хороший результат в этом плане даст создание целевых программ конкретного технологического обновления на каждом предприятии. Необходимо усовершенствовать механизм управления технологическим обновлением. Потому что инновационное развитие и технологическое обновление на предприятиях осуществляют специальные подразделения по функциям.

Annotation

In the regions of our country, 30% of the fixed assets of manufacturing enterprises are both physically and morally obsolete. This can have a negative impact on almost all technological and economic indicators of enterprises. Labor productivity, which is the most important indicator, remains at a low level. In this regard, a good result in this regard will be given by the creation of target programs for specific technological renewal at each enterprise. It is necessary to improve the mechanism for managing technological renewal, because innovative development and technological renewal at enterprises are carried out by special divisions by functions.

Mamlakatning innovatsion rivojlanish, uning iqtisoiy siyosatini asosiy yo'nalishi hisoblanadi. Innovatsiya nafaqat ishlab chiqarishni, mehnat unumdorligini oshiradi, balki korxonalarda texnologik yangilanishni ham ta'minlaydi.

"Innovatsiya" atamasi yangilikni joriy etish va uning natijasi tushunchasini ifodalaydi.

Y.Shumpeter (Avtriya) va B.Tviss (Vengriya) innovatsiyaning mohiyatini yoritib, ya'ni innovatsiya bilimlarni rivojlantirish asosida yangi texnologiya va mahsulotlarni yaratuvchi jarayon deb ta'kidlaganlar[1].

Amerikalik iqtisodchi D.Braytning fikricha, innovatsion jarayonda boshqaruv mexanizmi ajralib turadi[2]. Uning asosiy mazmuni bir g'oyaga asoslanib, ya'ni yangilikni yaratib ishlab chiqarish, savdo va iste'mol qilish munosabatlarini rivojlantirishdan iboratdir. Sanoat ishlab

chiqarishining hozirgi sharoitlarida innovatsiyalar nafat yangilik yaratadi, balki insonlarning tafakkuri, bilim darajasi va madaniyatini ham o‘zgartiradi.

Mamlakatda yoki hududlarda iqtisodiyot ko‘p bosqichli bo‘lganligi sababli yangiliklarni yaratish ham ko‘p bosqichli hisoblanadi. Innovatsion loyihalarni amalga oshirishda eng asosiy bo‘g‘inlardan korxona darajasidir. Chunki bu bosqichda ehtiyojlarni qondirish uchun moddiy boyliklar bilan ta’minlanadi.

Shunday qilib, avvalambor innovatsion yangiliklar va loyihalar korxonalarda amalga oshirish zarur. Ushbu jihatdan ishlab chiqarishda innovatsiyalarni rivojlantirish yaxshi samara beradi. Shu sababli tadqiqotimizda korxonaning nazariy nuqtai-nazaridan umumiy innovatsiya modelini ishlab chiqishga harakat qildik (2.2.1-rasm).

Ushbu modelning eng e’tiborli jihati shundaki, u korxonalarda yangi mahsulotni ishlab chiqishga asoslangan.

Bizning nuqtai-nazarimizdan sanoat ishlab chiqarishida innovatsiyalar ikki turga bo‘linadi:

1. Texnik va texnologik innovatsiyalar. Yangi mahsulot yaratish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ishlab chiqarish jarayonlardan iborat bo‘ladi.
2. Boshqaruv innovatsiyalari. Boshqaruv mexanizmi va uning elementlari doimiy ravishda takomillashtiriladi.

Umuman olganda korxonalar uchun quyidagilar innovatsiya bo‘lishi mumkin:

- yangi mahsulot turlarini yaratish va ishlab chiqarish bog‘liq bo‘lgan yangi texnika va texnologiyalar;
- ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, jihozlarni va asbob-uskunalarni modernizatsiyalash, yangi xomashyo turlari va materiallarni ishlab chiqarishga jalb etish, mehnat xavfsizligini ta’minlash, ekologik bosimni pasaytirishga yo‘naltirilgan texnologik o‘zgarishlar;
- ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish asosida ishlab chiqarish texnologiyalarini rivojlantirish;
- yangi yoki takomillashtirilgan ishlab chiqarish tizimlari: mahsulotni sotish yoki tarqatishda usullarni o‘zgartirishlar;
- yangi ishlab chiqarish shakllarini joriy etish va boshqaruv mexanizmini takomillashtirish;
- mehnat sharoitlarini yaxshilash hamda personalning ijtimoiy holatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar va hakozolar.



1-rasm. Korxonaning umumiy innovatsiya modeli.

Hozirda mamlakatimizdagi, shu jumladan, Jizzax viloyatidagi korxonalarda ham texnik va texnologik qoloqlik mavjud. Shu sababli fan va texnika yutuqlaridan samarali foydalanish innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tish korxonalarimiz uchun juda muhimdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda korxonalarimiz, ayniqsa qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida raqobatbardoshlikni ta’minlash, uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish, yangiliklarni joriy etish lozim.

Innovatsion rivojlanishga asoslangan korxona quyidagilarni e’tiborga olishi kerak:

- innovatsion faoliyat rejalari va dasturlarga ega bo‘lish;
- mahsulotning yangi turlarini yaratish loyihalarini ishlab chiqish, yagona innovatsion siyosat olib borish;
- innovatsion dasturlarning barcha, ya’ni moliyaviy, moddiy resurslar bilan ta’minlash va boshqalar.

Innovatsion faoliyat jamiyatning barcha darajalarida - korxona, tarmoq, hudud va mamlakat miqyosida tashkil etiladi.

Innovatsion faoliyatni samarali tashkil etishda boshqaruv mexanizmiga katta ahamiyat berilishi lozim. Chunki innovatsiya boshqaruv mexanizmining asosiy elementi hisoblanadi.

Sanoat korxonalarda moddiy boyliklar ishlab chiqarilishi munosabati bilan unda innovatsion faoliyat turlarini o‘rganishni maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Bu quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan

Innovatsion faoliyat turlari

Faoliyat turi	Darajasi	Yangilashtirish	Samaradorligi	Muddati
Strategik yangilash faoliyati	Davlat boshqaruv organlari	Yangi mahsulot yaratish jihozlari	70% dan ortiq	Uzoq muddatli
Ishlab chiqarishni yaxshilash	Zavod rahbariyati	Resurslar oqimi	50% dan ortiq	O‘rta muddatli
Yaxshilash bo‘yicha kundalik faoliyat	Bo‘limlar	Jarayonlarni takomillashtirish	20-40 %	Qisqa muddatli
Yaxshilash bo‘yicha kundalik faoliyat	Sexlar, uchastkalar	Jihozlarni yangilash	5-20 %	Istiqbolli

Yuqorida ko‘rish mumkinki, korxonalarda yangi texnologiyalarga doimo zarurat seziladi. Ammo zamonaviy texnologiyalarni olib kelish oson ish emas, chunki yangi texnika va texnologiyalarni olib kelish katta xarajatlar bilan bog‘liq. Shu sababli korxona darajasida transfer jarayonlarni rivojlantirish zarur.

Innovatsion rivojlanish korxonalar boshqaruv mexanizmini takomillashtirib, xorij tajribasidan foydalanishni ta’minlashi lozim. Shu sababli korxonalar innovatsion salohiyatini oshirish maqsadida uni rivojlanishining nazariy jihatlarini tahlil etish foydali jarayon deb belgilanmoqda.

Hozirda korxona innovatsion faoliyatini tubdan yaxshilash uchun uning boshqaruv mexanizmini takomillashtirish zarur. Chunki ko‘p hollarda boshqarish mexanizmining elementlari ko‘p hollarda eskicha eskirib qolgan usullarga yondashib ish olib bormoqdalar. Ular innovatsiyani rivojlantirishga zid bo‘lmoqdalar. Shuning uchun korxonalarda boshqaruv mexanizmi elementlarini zamonaviy talablarga javob beradigan qilib takomillashtirish lozim. Ushbu fikrni rossiyalik olimlar D.N.Karnuxin va B.Z.Milnerlar ham ta’kidlashgan[3].

Korxonalarda innovatsion boshqaruvni shakllantirish avvalambor innovatsion salohiyatni oshirishga qaratilgan. Korxonalarda innovatsion salohiyat darajasi qanchalik ko‘p bo‘lsa, undan samarali foydalangan holda ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdorligi oshib boradi, tannarx pasayadi, foyda oshadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, aytish mumkinki, jamiyat ehtiyojlariga asoslangan holda innovatsion boshqaruvning nazariy va metodologik jihatlarini o‘rganish lozim bo‘ladi. Innovatsiyaning boshqaruv mexanizmini shakllantirishiga va rivojlantirishiga quyidagilar ta’sir o‘tkazadi:

1. Bilimlar darajasi innovatsion boshqaruv uchun, ya’ni dunyo, mamlakat va korxona darajadagi bilimlar darajasi bo‘lishi mumkin;

2. Moliyaviy imkoniyatlar. Innovatsion loyihani moliyalashtirish tizimini rivojlantirish imkonini belgilash;

3. Innovatsion boshqaruv mexanizmi. Boshqaruv mexanizmini innovatsion boshqaruv tizimiga moslashtirish;

4. Innovatsion faoliyat maydoni. Ishlab chiqarish jarayonida “tor joylar”ning paydo bo‘lishi. Ularni bartaraf etish uchun innovatsiya maydonini belgilash.

Demak innovatsion boshqaruv mexanizmini samarali tashkil etish uchun maqsadli dasturlar va strategik rejalar ishlab chiqish kerak. Umuman olganda qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion boshqaruv mexanizmini tashkil etish jarayonlari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Korxona boshqaruv mexanizmini tashkil etish jarayonlarini murakkab tizim sifatida tadqiqot o‘tkazish lozim. Shu sababli bu tizimdagi innovatsiyalar eng samarali innovatsiyalar hisoblanadi.

Innovatsion boshqaruv mexanizmini samarali tashkil etish yuqori malakali menejerlarga bog‘liq.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday korxona innovatsion salohiyatni oshirishni lozim ko‘radi. Ammo bunga hamma korxonalar ham erisha olmaydi. Chunki bozorda raqobatning kuchayishi qarama-qarshiliklar keltirib chiqaradi. Ya’ni ichki qarama-qarshiliklar, ishni tashkil etishdagi kelishmovchiliklar, iste’molchilar uchun yaratilayotgan qiymatlar va boshqalar. Shu sababli top-menejerlar innovatsion salohiyatni oshirish uchun mavjud kamchiliklarning oldini olish yoki bartaraf etishi zarur. Bundan tashqari korxona innovatsion salohiyatini oshirishning boshqa usullari ko‘p. Masalan, korxonada innovatsion bo‘lim yoki markazlar ochish, ilmiy-tadqiqot institutlari bilan aloqalar o‘rnatish, innovatsion bozoriga chiqish, yarmarkalarda qatnashish, seminarlarda ishtirok etish shular jumlasidandir.



2-rasm. Innovatsion boshqaruv mexanizmi jarayonlari.

Hozirgi koronavirus pandemiyasi tugagandan keyingi murakkab sharoitlarda korxonalar innovatsion salohiyatini oshirishga e’tibor qilgan holda unga yangi strategiyalar ishlab chiqish zarur, chunki bu kasallik pandemiyasi oqibatida kelib chiqqan inqirozning ta’siri anchaga cho‘zilishi mumkin. Chunki, bu pandemiya nafaqat korxonalar faoliyatini pasaytirdi, balki u

xalqaro, mintaqaviy va milliy darajadagi iqtisodiy aloqalarni ham susaytirib, butun jahon iqtisodiyotiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa bu davrda ishchi kuchi sonining oshib borishi, ishsizlikning ko‘payishi natijasida innovatsiya salohiyati o‘rtasida mutanosiblik o‘zgardi, ishchi kuchiga bo‘lgan talab kamaydi, uning qiymati pasaydi.

Korxonada innovatsiya rivojlangan sari ishchi kuchiga bo‘lgan talab ham o‘zgaradi. Mehnatning mazmuni o‘zgarib, ishchi va xodimlarning roli oshib, ularning bilimdonligi, layoqati va ma’suliyati ijobiy tomonga o‘zgaradi. Bunga misol qilib ishlab chiqarish jihozlarini qiymati va ishchi kuchi sifatini ta’minlash qiymatini keltirish mumkin.

E.Penrouzning korxona nazariyasiga asoslangan holda rivojlantirish darajasi korxona boshqaruvi va inson resurslarining sifatini aniqlaydi[4]. Demak innovatsiyaning muvaffaqiyatini ta’minlashda eng muhim omil – bu inson omilidir.

“Yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo mahalliy xomashyo resurslarini chiqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tkazish orqali sanoatni sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish”[5].

Yuqorida aytib o‘tilgandek, bozor iqtisodiyoti sharoitida nafaqat mamlakat sanoati rivojlanishida, balki uning hududlarida texnologik yangilanishning asosiy yo‘nalishlari yangi mahsulot yaratish, harakatlarning kamayishi, ishlab chiqarish tuzilishini yaxshilash, samaradorligini oshirishga qaratilgan. Ishlab chiqarish korxonalarida texnologik yangilanishning yana bir jihati ijtimoiy qondirish, mehnat sharoitini yaxshilash, motivatsiya yondashuvni kuchaytirish, mehnat unumdorligini oshirish hisoblanadi.

Zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyasi insonni jismoniy ziddiyatdan ozod etish, asab va miya faoliyatini yaxshilashga olib keladi[6].

Ishlab chiqarish kuchlaridagi o‘zgarishlar mehnat qurollariga ta’sir o‘tkazadi. Materiallarni qayta ishlash, texnologik operatsiyalarni takomillashtirish, ish usullarini yaxshilash va jihozlarga olib keladi.

Texnologik yangilanishni tadqiq etishda uni uch darajada o‘rganish yaxshi samara beradi, davlat darajasi, tarmoq va korxona darajasida. Davlat darajasida texnologik yangilanishda unga davlatning ta’siri, rag‘batlantirish shakl va usullari o‘rganiladi.

Tarmoq va korxona darajasida mikrotuzilmani tahlil qilish jarayonlarning konkret mazmunini ochish, fond sig‘imi, materiallar, mehnat sig‘imini pasaytirish ishlab chqarish samaradorligini oshirishni ta’minlaydi.

Texnologik yangilanishning tarmoq darajasi nafaqat o‘tkazilgan tadqiqotlarning kamligi, balki bunda texnologik rivojlanishning iqtisodiy qonuniyatlarining ochib berishsh bilan belgilanadi

Texnologik yangilanishda ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar o‘rtasida uzviy aloqalar kuchayib boradi, integratsiya va qayta ishlab chiqarish jarayoni kuchayadi. Oxirgilari, odatda mehnat va modiiy resurslarning xarajat ulushlarini kamaytirish, diversifikatsiyalashni kengatirish foyda me’yorini oshirishga olib keladi. Pirovard natijada texnologik yangilanish zarurati ishlab chiqaruvchi va iste’molchilarni qoniqtiradigan bosh vosita sifatida xizmat qiladi.

Aytib o‘tish joizki, ishlab chiqarishning texnologik yangilanishning rivojlantirishda fan va ishlab chiqarish aloqalarni kuchaytirish ijobiy samara beradi. Bu borada ilmiy-tadqiqot loyihalarning maqsadli-dasturlarini moliyalashtirish asosida ilmiy-ishlab chiqarish majmualar kompaniyalar, sanoat-moliya guruhlarni tuzish maqsadga muvofiq bo‘ladi, - deb hisoblaymiz. Bunda boshqaruv mexanizmini takomillashtirish orqali yangi mahsulot va texnologiya yaratishda ilmiy-ishlab chiqarish jarayoni yaxlit tizim sifatida xizmat qiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda ilmiy-tadqiqot va konstruktorlik ishlarga YaIMning 3-4 foizi ajratiladi. O‘zbekistonda esa bu ko‘rsatkich 0,2 foizga to‘g‘ri kelmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoevning takliflarga ko‘ra ushbu ko‘rsatkich yaqin yillarda 15-20 foizni tashkil etish kerak.

Hozirda xorijiy davlatlarda innovatsiya va texnologik yangilanish muammolari bo‘yicha ko‘plab mualliflar ilmiy ishlar bajarilgan. Masalan, Hanus Monica J., Harvis Andrew T., Killip

Gavin, Movadi Mahmoud, A.David, Gluch Permilla va boshqalar. MDH, xususan, Rossiyalik olimlar R.YU.Burkov, YU.Velikorodov, V.S.Gongarov, D.A.Zavarin, D.I.Ivanova, A.X.Metov, I.V.Fedossova va boshqalar. Ushbsh ishlarda innovatsiyalarni joriy etish samaradorligini baholashga qaratilgan muammolar o‘rganilgan. Aytib o‘tish lozimki, olimlar tomonidan taklif etilgan usullar va yondashuvlar hozircha qurilish kompleksning innovatsion amaliyotda keng joriy etilgani yo‘q.

XXI asrning boshlariga kelib rivojlangan davlatlarning sanoat tarmoqlarida yuzaga kelgan kuchli raqobat natijasida fan-texnika yutuqlarining salohiyatidan to‘laroq foydalanishni ta’minlash imkoniyatlari murakkablashdi. Buning asosiy sababi, innovatsiyalar shakllanishi va tarqalish muhitida bozor mexanizmlarining cheklanganligini quyidagilar bilan asoslash mumkin:

Birinchidan, ayrim tarmoqlar va korxonalarni keng miqyosdagi innovatsiyalarni amalga oshirish uchun mablag‘larning etishmasligi;

Ikkinchidan, innovatsiyalar kompleks ravishda boshqarilmasa. Ya’ni boshqa ishlab chiqarish va noishlab chiqarish elementlari bilan bog‘lanmasa, tarmoq va korxonalar uchun katta yo‘qotishlarga olib keladi;

Uchinchidan, innovatsion loyihalar ko‘p jihatdan risklar bilan bog‘liq bo‘ladi. Risk esa loyihani amalga oshirish uchun iqtisodiy jarayonning o‘zgarishini talab qiladi. Ularni qoplash uchun qo‘shimcha sarflarga olib keladi.

To‘rtinchidan, innovatsiyadan olinadigan samara uzoq muddatga cho‘zilishi mumkin. Shu sababli loyihaning to‘liq samaradorligini oldindan baholash to‘g‘risida asoslangan qaror qabul qilish murakkab masala bo‘lib qoladi.

Beshinchidan, yangi mahsulot va xizmatlar qiymatini yuqoriligi hisobiga undan ko‘p hollarda foydalanish mumkin emas edi. Bu innovatsiyalarni o‘zgartirish davrida yuqori sarf-xarajatlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Tarmoq va korxonalarda innovatsion faoliyatni amalga oshiriladigan va ba’zi hollarda innovatsion siyosatni foydali bo‘lish va bo‘lmasligiga e’tiboran davlatning innovatsion sohadagi rolini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Davlat tomonidan tarmoq innovatsion boshqaruv faoliyatini qo‘shimcha rag‘batlantirish funksiyasi iqtisodiyot vositalari (kredit, soliq, investitsiya, texnologiya va boshqalar) orqali amalga oshiriladi, bu esa o‘z navbatida resurslar qiymatini pasaytiradi va sifatni oshirish imkonini beradi. Davlatning innovatsion faoliyatda faol ishtirok etishi ilmiy-texnik va innovatsion faoliyat natijalarining uzoq muddatga istiqbolini ishlab chiqish bilan bog‘liq. Yangiliklarning samarali muayyan darajada innovatsiyalar sohasi, turi hamda ularni joriy etish vaqtni to‘g‘ri tanlash bilan ifodalanadi.

Innovatsion faoliyatni rivojlantirish va bu jarayonga jalb etilayotgan resurslar hajmini ko‘paytirish o‘z navbatida xususiy va davlat subyektlarining (korxonalar, universitetlar, davlat laboratoriyalari boshqalar) o‘zaro samarali hamkorlik zarurligini anglatadi.

Olib borilgan tahlillarning ko‘rsatishicha jahonning rivojlangan mamlakatlarida YaIM o‘sishining 75 foizi aynan innovatsiyalar hisobiga to‘g‘ri kelmoqda. O‘tgan 15 yilda innovatsiya sohasida ishlovchilarning soni AQSH va G‘arbiy Yevropada 2 martaga, Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida 4 marotaba oshdi. Yevropa Ittifoqida innovatsion faol sanoat korxonalarining umuman 50 foizdan ortiqroqni tashkil etmoqda[7].

Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish ustivor yo‘nalishi sifatida qaraliyotgan bir sharoitda mamlakatimizda iqtisodiyotning barcha real tarmoqlarida bo‘lgani kabi qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning strategik maqsadi – bu ilg‘or innovatsion boshqarish mexanizmi usullariga asoslangan texamkor, raqobatbardosh, ekalogik jihatdan toza ishlab chiqarish tizimini yo‘lga qo‘yish va uni rivojlantirishdan iborat.

Qurilish, umuman qurilish industriyasining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda innovatsiyaning barcha turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ayniqsa korxona darajasida innovatsion boshqarish mexanizmi foydali samara beradi. Jizzax viloyati sement zavodida olib borilgan tadqiqot bunga asos bo‘lishi mumkin.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarning oldida turgan dastlabki vazifalardan biri– bu ishlab chiqarish asosiy fondlarini yangilash yoki modernizatsiyalashtirishdir. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, hozirgi vaqtda agentlik korxonalarida ishlab chiqarish fondlarining uchdan bir qismi eskirib qolgan, ularning unumdorligi past darajada bo‘lmoqda. Shu sababli korxonalarning strategik rejalarida birinchi navbatda bosqichma-bosqich asosiy ishlab chiqarish fondlarini yangilash masalasi turishi lozim, chunki ishlab chiqarish quvvati salohiyatini oshirish shu bilan bog‘liqdir.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida asosiy fondlarni foydalanishga qaratilgan iqtisodiy-texnologik ko‘rsatkichlarni o‘rganish yangi rezervlarni topishda imkon yaratadi. Bunda, masalan, fond sig‘imi, fan sig‘imi, qurollanish sig‘imi, energiya sig‘imi, mehnat qurollanish sig‘imi va boshqalar.

Ishlab chiqarish jarayonida texnika va texnologiyalarning yangilanishi uzoq muddatga borishi mumkin. Shu sababli ularning yangilanish jarayoni puxta o‘ylash manzilli jadvallar asosida amalga oshirish zarur.

Ishlab chiqarishning texnik va texnologik yangilanishini boshqarish, ayniqsa ularga kiritilayotgan investitsiyalardan samarali foydalanish ushbu jarayonning muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Bunda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar, grantlar va subvensiyalarning o‘rni katta. Faqat shunday yo‘nalishda korxonalarda innavatsion va texnologik yangilanishni samarali amalga oshirish mumkin.

Korxonalarda ekspertlarning hisobi bo‘yicha yangi texnika va texnologiyani joriy etish mehnat unumdorligini 40-45 foizga oshiradi.

Zamonaviy milliy iqtisodiyot va xususan qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasini rivojlantirishning eng istiqbolli yo‘nalishdan biri nonotexnologiyalardan foydalangan holda qurilish materiallarini yaratish hisoblanadi.

Shunday qilib olib borilayotgan tahlillar ko‘rsatishicha, qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasida innovatsion rivojlanish va texnika, texnologiyani yangilanishining boshqaruv mexanizmini takomillashtirish uchun quyidagilarni hal etish lozim:

- amalda innovatsiyalarni joriy etishning samaradorligini oshirib borish;
- qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion texnologiyalarni joriy etishda normativ-huquqiy va tashkiliy xujjatlarni takomillashtirish;
- qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyatiga yangi texnologiyalarni joriy etishda har qanday byurokratik to‘siqlarni olib tashlash;
- innovatsion g‘oyalarni joriy etishda korxona personalining faolligini oshirish;
- innovatsion va loyihalash jarayonlari qatnashchilarini muvofiqlashtirish ishlarni tezlashtirishni amalga oshirish;
- zamonaviy jahon standartlariga asoslangan holda yuqori qo‘shimcha qiymatga asoslangan texnologiyalarni joriy etish;
- tarmoqda yangi texnologiyalarni qo‘llashda xorijiy tajribalarni qo‘llagan holda xodimlar malakasini oshirish.

Demak, iqtisodiyotni globallashtirish sharoitida innovatsion siyosatni ishlab chiqarishga qaratish dolzarb masalaga aylanmoqda. Ayniqsa, jahon bozorida raqobatni kuchayishi innovatsion texnologiyalarning rivojlanishini talab qilmoqda. Mamlakatimiz, uning viloyatlari korxonalarida texnologik yangilanishga katta ahamiyat berish lozim. Chunki ishlab chiqarish korxonalarda asosiy fondlarning 30 foizi ham jismoniy ham ma’naviy eskirgan. Bu esa korxonalarning deyarli barcha texnologik va iqtisodiy ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Eng asosiy ko‘rsatkich bo‘lgan mehnat unumdorligi past darajada qolmoqda. Shu munosabat bilan har bir korxonada o‘ziga xos texnologik yangilanish bo‘yicha maqsadli dasturlarni tuzish bu borada yaxshi natija beradi. Texnologik yangilanishning boshqaruv mexanizmini takomillashtirish kerak. Chunki korxonalarda innovatsion rivojlanish va texnologik yangilanish funksiyalarga maxsus bo‘limlar amalga oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Инновационный менеджмент. М: Инфра-М. 2003. 239 ст

2. Tidd Joe, Pavitt Keith. Managing innovation: Integrating Technological, Market And Organizational Change. New York. 2001. p-388.

3. Карнухин Д.Н., Мильнер Б.З. – Современное управление. Издать центр, 1997.

4. Penrose E. – The Theory of the Growth of the Firm. Oxford. Oxford University. Press, 1995

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. (O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to'plami. 2017 y. 6-son, 70-modda).

6. Zaynutdinov Sh.N., Shermuxammedov A.T. – Menejment nazariyasi. T: Iqtisodiyot. 2014.

7. URL: https://www.kub3-v.M.Texnologiya–КУБ-3V.

8. Турсунқулов, Ином. "ҚУРИЛИШ МАТЕРИАЛЛАРИ КОРХОНАЛАРИДА БОШҚАРУВ МЕХАНИЗМИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИ РИВОЖЛАНТИРИШ СТРАТЕГИЯСИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ." Iqtisodiyot va ta'lim 23.4 (2022): 162-169.

9. Tursunqulov, Inom. "BOSHQARUV MEXANIZMINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH." *Iqtisodiyot va ta'lim* 6 (2021): 53-58.

10. Umirova, Gulmira. "QURILISH SANOATI KORXONALARI BOSHQARUV MEXANIZMINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH." *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* 10 (2024): 92-95.

11. Abdukhalilovich, Tursunkulov Inom. "IMPROVING THE MECHANISM FOR MANAGING THE INNOVATIVE POTENTIAL OF CONSTRUCTION ENTERPRISES." *World Economics and Finance Bulletin* 16 (2022): 64-66.

12. Nadirova-Kazan, Hilola. "THE IMPACT OF MEDIA LITERACY ON THE DEVELOPMENT OF SPEECH SKILLS: A COMPREHENSIVE ANALYSIS." *Next Scientists Conferences*. 2023.